

## O'ZBEK KOMPYUTER LINGVISTIKASINING SHAKLLANIB BORISHIDA OLIMLARNING TADQIQOTI

**Ablizova G.A**

O'zbekiston davlat jahon tillar universiteti,  
Zamonaviy axborot texnologiyalari kafedra katta o'qituvchisi,  
[gulzahiraolim@gmail.com](mailto:gulzahiraolim@gmail.com)

**Aripova G.I**

O'zbekiston davlat jahon tillar universiteti,  
Zamonaviy axborot texnologiyalari kafedra katta o'qituvchisi,  
[gulchehraaripova2020@gmail.com](mailto:gulchehraaripova2020@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada o'zbek kompyuter lingvistikasi va bu yo'nali shda bir qancha olimlar faoliyati, qarashlari tadqiqotlaridagi tahlillar izlanishlar amalga oshirilganini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari matematika kompyuter lingvistikasi o'zaro bog'ligini ko'rishimiz mumkin. Tilshunoslik rivojiga injinerlik lingvistikasini ta'sirini va ahamiyati maqolada o'z o'rnni topgan.*

**Kalit so'zlar:** kompyuter lingvistikasi, tilshunoslik, injinerlik lingvistikasi, psixolingvistika

Jahonda integratsiya va globallashuv jarayoni kechayotgan hozirgi davrda kompyuter lingvistikasi hayotiy zarurat sanaladi. Bugungi kunda kompyuter lingvistikasi jamiyatning deyarli barcha sohalariga kirib bordi. Ta'lif tizimini ham kompyuter lingvistikasisiz tasavur qilib bo'lmaydi.

Yildan-yilga o'zbek kompyuter lingvistikasi shakllanib bormoqda. Bu yo'nali shda bir qancha olimlar faoliyat olib bormoqda. Ularga A.Po'latov, N.Jo'rayev, Saodat Muhamedova va A.Rahimovlarni ko'rsatishimiz mumkin.

Kompyuter lingvistikasiga oid tadqiqot olib borgan olimlar sifatida S.Rizayev va S.Muhamedovalarni alohida ko'rsatish mumkin. Olimlar asosan statistik tahlil yo'nali shi bo'yicha izlanishlarni amalga oshirganlar[1].

O‘zbek tili kabi boy,keng va chuqur rivojlangan til masalalarini kompyuterda yechish darajasiga olib chiqish ingliz tiliga qaraganda katta hajmda ish bajarilishni talab qiladi. Demak, lingvistika+matematika+kompyuter birligida ishlash lozim. Bu quyidagi ishlarni amalga oshirishni taqazo etadi:

• Tilni sistemalash, to‘liq ma’lumotlar bazasini yaratish va uni dunyo til bilan qiyoslash.

• Aniq fanlar, texnika meditsina, biznes, tijorat, huquqshunoslik, diplomatiya,turli sohalarda hizmat qiladigan o‘zbek tilining aniq,qisqa va xalqaro ma’yorlarga asoslangan axborot uslubini yaratish.

• O‘zbek grammatikasining formal va aksiomatik modellarini yaratish.

• O‘zbek tilini kompyuterga olib kirish, ya’ni o‘zbek tili bilan bog‘liq masalalar-o‘zbek tiliga o‘qitish, bilimlarni baholash, matnlarni o‘zbekcha ovozlashtirish, axborotni ovoz orqali kompyuterga kiritish, matnlarni taxrirlash, tarjima qilishni kompyuterda bajaradigan dasturlarni ishlab chiqish.

O‘zbek kompyuter lingvistikasining boshqa yo‘nalishlari esa o‘z tadqiqotchilarini kutmoqda. Shunga ko‘ra bugungi kunda o‘zbek tilshunosligining kompyuter bilan bog‘liq holda hal etilishi lozim bo‘lgan quyidagi vazifalarni ta’kidlab ko‘rsatish mumkin [2] :

-O‘zbek tilining kompyuter uslubini yaratish;

-Axborot matnlaridagi qoliplilik, qisqalik standartlarini ishlab chiqish;

-Kompyutering izohli va tarjima lug‘atlarini yaratish;

-O‘zbek tili milliy korpusini ishlab chiqish;

-Kompyuterda inglizcha-o‘zbekcha tarjima dasturlarini ishlab chiqish;

-Kompyuterdagи matnlarni avtomatik tahrirlash dasturlarini yaratish.

Insonning kompyuterga nisbatan qaramlik holatining shakllanib borayotgani bugun jahon miqyosidagi muammo ekanligi sir emas. Bu dastyorning quliga aylanib qolish insonning ruhi va ruh ifodasi bo‘lgan tilida ham aks etayotganini ijtimoiy saytlarda ko‘rish mumkin. Hozirda biz kuzatayotgan kompyuter lingvistikasiga oid tadqiqotlarda bu narsa kompyuter lingvistikasi oldiga qo‘yilgan asosiy vazifalar

sirasiga kirmasada, yaqin keljak psixolingvistikasi va kompyuter lingvistikasi yo‘nalishlarining kesishmasida turuvchi asosiy masala sifatida aynan shu muammoni qo‘yilishiga shubha yo‘q. Hozirda ham kompyuter lingvistikasi fani oldida jamiyatimizni yangi ijtimoiy-iqtisodiy bosqichlarga ko‘tarishda zarur bo‘lgan vazifalar anchagina. Kompyuter lingvistikasi yangi soha bo‘lishiga qaramay, ancha tez sur’atlarda rivojlanmoqda.[3] Kompyuter lingvistikasi matematik lingvistikaning mantiqiy davomi bo‘lib, u amaliy tilshunoslikning eng muhim qismini tashkil etadi.

Ushbu yo‘nalishni rivojlantirish maqsadida dunyodagi ko‘plab davlatlarda ilmiy tadqiqot laboratoriyalari va markazlari ochilmoqda, u yerda professorlar, kompyuter mutaxassislari va tilshunos olimlar ish olib bormoqda. Kompyuter lingvistikasi yangi yo‘nalish hisoblanadi. Kompyuter lingvistikasini yanada rivojlantirilsa, bu yo‘nalish ustida ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirilsa va kadrlar tayyorlansa, kelajakda keng ko‘lamli sohaga aylanadi va uning negizida bir qator yo‘nalish va sohalar yuzaga keladi.

Kompyuterdan foydalanilgan holda ko‘plab chastotali lug‘atlar yaratilgan, ular o‘z navbatida mashina tarjimasi uchun zamin bo‘ldi. Ko‘rinadiki, rus kompyuter lingvistikasidagi mazkur to‘rt yo‘nalishning rivojlanishi rus tilining dunyoviy tillar sirasiga kirishi, ommalashuvi, uni o‘rganish va o‘rgatish jarayonining optimallashuvi uchun asos bo‘lgan. Bunda shubhasiz, kompyuter dasturchilarchilari bilan bir qatorda tilshunoslar ham muhim rol o‘ynadilar. Ayniqsa, prof. R.G.Piotrovskiyning izlanishlari o‘zining serqirraligi, har to‘rt yo‘nalishni o‘zida qamrab olganligi, obyektivligi, aniq va izchilligi bilan ajralib turadi. Olim nafaqat rus tilshunosligida, balki o‘zbek, qozoq, qirg‘iz va boshqa tilshunosliklarda ham injenerlik lingvistikasining rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan [4].

Ushbu maqolada lingvistika+matematika+kompyuter bo‘yicha bir qancha olimlar izlanishlari qarashlari tahlili to‘g‘risida fikr mulohazalar yuritildi va bilimlarni shakllantirish, kompyuter lingvistikasi tamoyillarini o‘zlashtirish, formallashtirish sohasidagi bilimlarni oqilona qo‘llash qobiliyatini rivojlantirish, matematik mantiq

asosida fikrlashga o‘rganayotgan sohalar, til va adabiyotga doir kompyuter dasturlarini yaratishda dasturchilarning dolbzarbligi, asoslarini berish kabi vazifalarni qo‘yadi.

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR***

1. *Azamat Rahimov “Kompyuter lingvistikasi asoslari”.* “Akademnashr” nashriyoti, 2011-yil. – B. 160 [1]
2. *Saodat Muhamedova “Kompyuter lingvistikasi” o‘quv qo‘llanma, Toshkent – 2007-yil. – B. 54 [2]*
3. *Po‘latov A.K., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi o‘quv qo‘llanma – Toshkent – 2007-yil – B. 98 [3]*
4. <https://hozir.org/kompyuter-lingvistikasining-rivojlanish-bosqichlari.html> [4]